DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH TO‘G‘RISIDA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Shodiyev Akmal O‘ktamjon o‘g‘li
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bugungi kunda nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham o‘zini oqlagan iqtisodiy vositalardan biriga aylangan. Uning mohiyati davlat va xususiy sektorning amaliy hamkorligiga tayanadi. Bu hamkorlik, ayniqsa, infratuzilma obyektlarini barpo etishda va aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishda katta ahamiyatga ega. Ushbu modelni joriy qilishdan ko‘zlangan maqsad ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, davlat o‘z vazifalarini bajarishda qo‘shimcha moliyaviy imkoniyatga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, xususiy kapital jalb etilishi hisobiga turli tarmoqlardagi infratuzilma yangilanadi va zamonaviy texnika hamda texnologiyalar asosida qayta jihozlanadi.

Boshqacha aytganda, DXSh davlat bilan xususiy sherik o‘rtasida tuzilgan kelishuv asosida yangi infratuzilma loyihalarini hayotga tatbiq etish demakdir. Bunday yondashuv aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, davlat byudjeti mablag’laridan oqilona foydalanish imkonini kengaytiradi.

Mazkur mexanizm shakllanib borgan sari iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar unga turlicha ta’rif berishgan. Jumladan, Jahon banki kabi xalqaro moliya tashkilotlari DXShni o‘zgartirish jarayoni sifatida talqin qiladi. Bu jarayonda davlat ijtimoiy obyektlar va infratuzilma loyihalarini xususiy sektor bilan birgalikda amalga oshiradi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning muhim qismi investitsiya muhiti va investitsion faollik masalalariga bag’ishlanmoqda. Buning sababi aniq: barqaror iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari va aholi daromadlarining ortishi bevosita shu omillarga bog’liq. Tadqiqotchilar quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratmoqda:

- asosiy kapitalga yo‘naltiriladigan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va ulardan foydalanish samarasini oshirish;
- to‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash;
- soliq va moliyaviy rag’batlar qanchalik natija berayotganini baholash.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa infratuzilmani DXSh asosida moliyalashtirishga oid masalalar birinchi o‘ringa chiqmoqda. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- investitsiya jalb qilishning huquqiy va institutsional asoslarini mukammallashtirish;
- “infratuzilma loyihasi” tushunchasini tasniflash va moliyalashtirish mezonlarini aniqlash;

- investitsiya jalb etish modellarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholash;
- xususiy investorlarning bunday loyihalardagi ishtirokini kafolatlash.

Tarixga nazar tashlasak, insoniyat taraqqiyoti hech qachon bir tekis kechmaganini ko‘ramiz. Hozirgi O‘zbekiston hududi ham bundan mustasno emas. Bu zamin yuksalish, tanazzul va nisbatan sokin davrlarni boshdan kechirgan va bugun uchinchi Renessans ostonasida turibdi. Yuksalish davrlari, odatda, davlatni adolatli hukmdor boshqargan va ilm-fan jadal rivojlangan paytlarga to‘g’ri kelgan. Tanazzul esa hokimiyat amalda qo‘g’irchoq hukmdorlar va diniy aqidaparastlar qo‘liga o‘tgan davrlarda yuz bergan. Mo‘tadil bosqichlarda na keskin burilishlar, na inqilobiy o‘zgarishlar kuzatilgan. Aholi turmushi ham sezilarli darajada yomonlashmagan, odamlar asosan tabiat in’omlaridan foydalangan holda kun kechirgan.

Yangi O‘zbekistonning uchinchi Renessans sari intilishi davlat boshqaruvi tizimi va mexanizmlarini tubdan isloh qilishni talab etadi. Shuningdek, ilm-fanning jadal rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish zarur. Bundan ko‘zlangan maqsad aholi turmush darajasini qo‘shni davlatlardagidan bir necha barobar yuqori darajaga olib chiqishdir. Shu bilan birga, mamlakat mintaqa va jahon miqyosida zamon talablariga hamohang rivojlanishi uchun zarur imkoniyatlar yaratilishi kerak.

So‘nggi 6-7 yil ichida milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilgari kuzatilmagan darajadagi tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ularning poydevori 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” bo‘ldi. Strategiyada belgilangan vazifalar o‘z vaqtida va to‘liq bajarildi, bu esa mamlakatning tez sur’atlarda rivojlanishiga asos bo‘ldi. Buni 2020-yil natijalari ham yaqqol tasdiqlaydi. Pandemiya sababli “Katta yigirmatalik” (G20) davlatlarida YaIM o‘rtacha 4,1 foizga qisqardi. Bu davlatlar jahon ishlab chiqarishi va xizmatlarining qariyb 80 foizini ta’minlaydi. Aynan shunday sharoitda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti 580,2 trln so‘mga yetib, 2019-yilga nisbatan 1,6 foizga o‘sdi.

Harakatlar strategiyasining samarali bo‘lgani keyingi besh yillik davr uchun “Taraqqiyot strategiyasi”ni qabul qilishga asos bo‘ldi. Bu strategiya 2022–2026-yillarni qamrab oladi. 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan umumxalq referendumi natijasida Konstitutsiyaning yangi tahriri qabul qilindi. Unga ko‘plab o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Asosiy qonundagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarni inobatga olib, amaldagi Taraqqiyot strategiyasi bilan uyg’un holda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi ham qabul qilindi.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarga umumiy qaraydigan bo‘lsak, odatda davlat ishtiroki sharti bilan birga, ikki va undan ortiq mahalliy yoki xorijiy hamkorlik shartnomasi bo‘lib, me’yoriy hujjatlarga binoan uzoq muddatli 3 yildan 49 yilgacha faoliyat yuritish xususiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda, DXSH asosida faoliyat yuritayotgan korxonalar va ular amalga oshirayotgan loyihalarni boshlanganiga hali ko‘p vaqt o‘tgani yo‘q, nari borsa 5-6 yil bo‘lmoqda. Bu, o‘z navbatida, hali bu borada mahalliy amaliy tajribalar yetarlicha emasligidan dalolat beradi.

Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, har bir davlat o‘z davrining davlatchilik talablariga javob beradigan darajaga yetgach, unda o‘ziga xos mulkchilik shakli shakllangan. Shu sababli davlat qaysi davrda bo‘lmasin, o‘sha muhitga xos tadbirkorlik subyektlari bilan doimo yaqin aloqada bo‘lgan. Bu aloqaning dastlabki va asosiy ko‘rinishi soliqlar hamda soliq vazifasini o‘tovchi boshqa majburiy to‘lovlar orqali namoyon bo‘lgan. Davlat shu yo‘l bilan yig’ilgan mablag’lar hisobiga o‘z zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarib kelgan. Biroq o‘sha paytlarda moliyaviy va iqtisodiy munosabatlar tartibli tizimga ega bo‘lmagan, ular ko‘proq tarqoq va beqaror tarzda kechgan. Qisqasi, bu munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy asos hali yaratilmagan edi. Vaqt o‘tib, o‘zaro aloqalar kengaygani sari hokimiyat va xususiy shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar ham bosqichma-bosqich huquqiy tus ola boshladi. Natijada ularni tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.